

THE CONSTITUTION IS THE FOUNDATION OF A PROSPEROUS LIFE

Malika Eraliyeva

Student of Tashkent state university of law

+998996075877

malikaeraliyeva527@gmail.com

Nozima Komiljonova

Student of Tashkent state pedagogical university named after Nizami

+998901216950

nozimakomiljonova389@gmail.com

Annotation: This article describes the role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the life of society, the fact that human rights and freedoms are established as the highest value, and the main goals and tasks of state activity are defined as serving the interests of the people.

It was mentioned that raising the legal consciousness and legal culture of the population is one of the main goals today, and what work will be done in this regard.

Key words: democracy, human rights, legal consciousness, legal culture, state, society, citizen, normative-legal document, Constitution

KONSTITUTSIYA - FAROVON HAYOT POYDEVORI

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyat hayotidagi o'rni, unda inson huquq va erkinliklarining eng oliy qadriyat sifatida o'rnatilganligi, davlat faoliyatining asosiy maqsad va vazifalari xalq manfaatlariga xizmat qilish etib belgilanganligi bayon etilgan.

Aholining huquqiy onggi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bugungi kunda bosh maqsadlardan biri etib belgilanganligi va bu borada qanday ishlar amalga oshirilishi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: demokratiya, inson huquqlari, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, davlat, jamiyat, fuqaro, normative-huquqiy hujjat, Konstitutsiya

КОНСТИТУЦИЯ – ОСНОВА БЛАГОПОЛУЧНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация:

В данной статье раскрывается роль Конституции Республики Узбекистан в жизни общества, то, что права и свободы человека устанавливаются как высшая ценность, а основные цели и задачи государственной деятельности определяются как служение интересам общества людям.

Было упомянуто, что повышение правосознания и правовой культуры населения является одной из главных задач на сегодняшний день, и какая работа в этом направлении будет проведена.

Davlatga muayyan hududda oliy hokimiyatni amalga oshiruvchi, maxsus boshqaruv apparatiga ega bo‘lgan, jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy guruhlarning manfaatlarini ifoda etuvchi, ularni birlashtirib va muvofiqlashtirib turuvchi siyosiy tashkilot sifatida qarar ekanmiz, uning bir qancha o‘ziga xos belgilarga ega ekanligini ham aytish maqsadga muvofiqdir. Ushbu belgilardan biri - *huquq tizimining mavjudligi*. Ya’ni huquqsiz davlat mavjud bo‘la olmaydi. *Huquq davlat hokimiyatini yuridik jihatdan rasmiylashtiradi* va shu bilan uni legitim, ya’ni qonuniy qilib qo‘yadi. *Davlat o‘z funksiyalarini huquqiy shakllarda amalga oshiradi*. *Huquq davlat va davlat hokimiyati faoliyatini qonuniylik doirasiga olib kiradi*, ularni aniq huquqiy tartibga bo‘ysundiradi¹. Har qanday davlatda huquq tizimining eng asosiy manbasi sifatida e’tirof etiladigan qonun hujjati mavjud bo‘ladi. Mamlakatimizda esa ko‘plab rivojlangan davlatlar singari Konstitutsiya - huquqning asosiy manbayi sifatida qonunchilikda eng yuqori pog‘onada turadi.

¹ Sh.Saydullayev. davlat va huquq nazariyasi. Toshkent-2018.37-b

Buning isboti sifatida O‘zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida"gi Qonunining oltinchi moddasini keltirishimiz mumkin. Unga ko‘ra, qonun hujjatlari iyerarxiyasida Konstitutsiya birinchi pog‘onadan o‘rin olgan. Ya‘ni Konstitutsiya - davlatning bosh qomusi, qolgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar u asosida va unga zid bo‘limgan holatda qabul qilinishi lozim. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi. Konstitutsiyaga, umuman olganda, mamlakatni huquqqa tayanib boshqarishning nima keragi bor? Hamma erkin, farovon turmush tarzida hech qanday to‘sqliarsiz yashasa bo‘lmaydimi? Qonunlar orqali insonlarning xatti-harakati cheklanib, yoki kimlarningdir huquqlari ustun bo‘lib qolmaydimi, kabi. Bu savollarga quyidagicha javob berish mumkin. Agarda mamlakat huquq tizimiga asoslanib boshqarilmas ekan, jamiyatdagi barcha odamlar o‘zлari xohlaganicha emin-erkin yashar ekan, ular o‘z xohish-istiklarini amalga oshirishi jarayonida jamiyatning boshqa a’zolari manfaatlariga putur yetkazib qo‘yishi mumkin. Shuningdek, o‘zini o‘zi himoya qila oladiganlargina ustun bo‘lib qolishi, jamiyatda kuchli insonlarning zo‘ravonlikka asoslangan hukmronligi o‘rnatalishi mumkin. Bunday jamiyatga barham berishning birdan bir yechimi esa, albatta, mamlakatni huquqqa asoslangan holda boshqarish hisoblanadi. Bu orqali, o‘z huquqini erkin himoya qila olmaydiganlar ham qonun orqali huquqlarini himoya qila olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shu jumladan, Konstitutsiyamizning 20-moddasida ham qayd etilishicha, "Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini hamalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart". Tom ma’noda, bugungi kunda barcha rivojlangan davlatlar qatori O‘zbekistonda ham qonun ustuvorligi o‘rnatalgan. Bugungi kunda mamlakatimizda har bir shaxs shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Eng e’tiborli jihat shundaki, O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi barcha fuqarolar bir xil huquqqa ega ekanligi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat‘iy nazar qonun oldida teng ekanligi Bosh qomusimizda ham belgilangan va buning amaliy natijasini har qanday sohada kundalik hayotimiz jarayonida kuzatishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyamizning diqqatga sazvor jihatlaridan biri – eng avvalo, inson huquq manfaatlarini himoya qilish etib belgilangan. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida ham davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida mas’ul ekanligi belgilangan. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich ham aytganlaridek, xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishlari kerak. Ya’ni, qabul qilinayotgan har qanday hujjat yoki amalga oshirilayotgan har qanday islohot inson manfaatlarini ko’zlashi kerak. Negaki, bu kabi hujjatlar insonlar uchun qabul qilinmoqda va ularni qabul qilayotganlar ham insonlardir. Bejizga ajdodlarimiz:

“Islohot islohot uchun emas, avvalo, inson uchun” deb aytishmagan.

Foydalanilgan manbalar:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. <https://lex.uz/docs/-20596>
2. “Normativ-huquqiy hujjatlar to’g’risida”gi qonun
3. Sh.Saydullayev. davlat va huquq nazariyasi. Toshkent-2018.37-b